
BUNYODKORLIK ISHLARI KENG QULOCH YOYMOQDA

Oltiariq tumanida ijtimoiy soha ob'ektlari qurilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 15-umumta'lim maktabi binosining o'quv xonalarini ta'mirlash "Saxodullo Muborak" MChJ tomonidan bajarilyapti. Bunyodkorlar 450 mln so'm qiymatidagi ushbu ob'ektni muddatidan avval foydalanishga topshirishni maqsad qilganlar. Bundan tashqari, "Oltiariq bunyodkor qurilish fayz" hamda "Oltiariq Buldigs" MChJ ishchi-xizmatchilari tomonidan 1- hamda 14-umumta'lim maktablarida ham qurilish-ta'mirlash ishlari sifatli amalga oshirilmoqda.



Tumanda investitsiya dasturi doirasida Ibn Sino MFYda 296-XIKMK MChJ tomonidan toza ichimlik suvi tizimlarini qurish va rekonstruktsiya qilish maqsadi uchun 3 mlrd 993 mln so'm mablag' ajratilgan. Buning uchun 1 ta suv qudug'i ta'mirlanib, 1 ta suv inshooti o'rnatiladi. Rejadagi 4 km.ga tarmoq tortildi va mavjud quduqni ta'mirlash ishlari olib borilyapti. Shuningdek, "Poloson" va Muqimiy MFYlardagi umumiy qiymati 3 mlrd 183,1 mln so'm bo'lgan ichimlik suvi tizimlari qurishni "Farg'ona kristal qurilish" xususiy korxonasi bajaryapti.

Tumanda "Obod qishloq" dasturi doirasida har birining ob'ekt qiymati 1mlrd 800 mln so'mdan bo'lgan "Qiziltepa" va "Bunyodkor" MFYlar xududlaridagi aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, ichki yo'llarni ta'mirlash "Fayzli Alimardon" xususiy korxonasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-04 16:00:48